
1 OKTYABR – O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI MUNOSABATI BILAN BAYRAM TADBIRI BO‘LIB O‘TDI

Sana munosabati bilan tashkil etilgan bayram tadbiriga ta‘lim tizimida ko‘p yillar mehnat qilgan faxriy pedagoglar, tumandagi umumiy ta‘lim muassasalarida fidokorona mehnat qilayotgan o‘qituvchi va murabbiylar hamda maktabgacha ta‘lim muassasalarida samarali mehnat qilayotganlar taklif etildi.

Dastlab tadbirda so‘z olgan tuman hokimi Bahodir Xoliqov barcha soha xodimlarini 1oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni bayrami bilan samimiy muborakbod etdi. Tuman hokimi tabrik so‘zida mamlakatimizda keyingi 5 yil mobaynida muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbuskorligida bog‘cha, maktab va oliy ta‘lim tizimida ishlayotgan tarbiyachilar, o‘qituvchi va ustozlar mehnatini munosib qadrlash, ularning ish haqini, jamiyatdagi nufuzini oshirish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yilganligini ta‘kidlab, keyingi ikki yilda ham tumanimizda 10 dan ortiq maktablarda qurilish-ta‘mirlash ishlari amalga oshirildi. “Tashabbusli byudjet” loyihasi bo‘yicha 10 ta maktabimizning moddiy-o‘quv texnik bazasi boyitildi, qo‘shimcha o‘quv binolari qurilib, o‘quvchilar ixtiyoriga topshirilganligini aytib o‘tdi.

Tadbirda ta‘lim sohasida namunali faoliyat yuritib kelayotgan o‘qituvchi va murabbiylar fidokorona xizmatlari uchun esdalik sovg‘alari va faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi.

Konsert dasturida san‘atkorlar tomonidan kuy-qo‘shiqlar, sahnalashtirilgan chiqishlar ustozlar uchun ajoyib bayram kayfiyatini ulashdi.

2023-09-29 13:57:54